

MENTALITET VA IJTIMOIIY MENTALITET TUSHUNCHALARINING ILMIY KONSEPTUAL ASOSLARI

Guljaxon Zokirjon qizi SUYARKULOVA

mustaqil izlanuvchi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

guljaxonzokirovna@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada mentalitet shakllanishining o'tgan asr bilan bog'liq oqibatlari, saboqlari va istiqbolini belgilaydigan jihatlar, uning kelib chiqish tarixi, mavjud asosiy konsepsiyalari, shuningdek jamiyat hayotida qanday ahamiyat kasb etayotganligi hamda turli sohalarida faoliyat yurituvchi olimlar orasida ushbu tushunchaning ma'nosini aniqlashtirish borasida olib borilgan bahs-munozaralar haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: mentalitet, demokratik islohotlar, zamonaviy texnologiyalar, milliy taraqqiyot, inson ruhiyati, fikrlash uslublari, irsiy xususiyatlar, milliy tafakkur tarzi, milliy dunyoqarash, madaniy antropologiya.

НАУЧНЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ МЕНТАЛЬНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ МЕНТАЛЬНОСТИ

Гулжахон Зокирджон кызы СУЯРКУЛОВА

Независимый исследователь

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

guljaxonzokirovna@gmail.com

Аннотация

В данной статье рассматриваются последствия, уроки и аспекты, определяющие будущее формирования менталитета в прошлом веке, история его возникновения, существующие основные концепции, его значение в жизни общества, а также дискуссии, которые ведутся среди учёных разных направлений для уточнения смысла этого понятия.

Ключевые слова: менталитет, демократические реформы, современные технологии, национальное развитие, человеческий дух, стили мышления, наследственные характеристики, национальный образ мышления, национальное мировоззрение, культурная антропология.

Hayot talabi bilan kun tartibiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish demokratik islohotlarni milliy mentalitet bilan aloqador tarzda hal qilishga, yutuqlar samaradorligiga, milliy taraqqiyot modelining takomillashuviga olib keladi. Chunki mentalitetga oid tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqlarning necha ming yillik tarixi ular o'rtasidagi mentallik farqlarini o'chirib yubora olmadi,

hatto zamonaviy texnologiyalar ham mentalitetga qisman ta'sir ko'rsata oldi, xolos. Shu sababli o'zbek mentaliteti shakllanishining o'tgan asr bilan bog'liq oqibatlari, saboqlari va istiqbolini belgilaydigan jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«Mentalitet» so'zi qadimgi lotin tilidan olingan bo'lib, inson ruhiyatining o'ziga xos sifatlarini ifodalaydi. Bu tushuncha turli madaniyatlarda turli ma'nolarni qamrab oladi. Masalan, hozirgi kunda bu so'z bilan bir qatorda boshqa tillardan olingan so'zlar ham ishlatiladi. Tadqiqotimizda mentalitet tushunchasini tahlil etish maqsadida uning kelib chiqish tarixi, mavjud bo'lgan asosiy konsepsiyalari, shuningdek jamiyat hayotida qanday ahamiyat kasb etayotganligi aniqlanadi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, birinchi bor ushbu termin fransuz faylasuflaridan biri Sharl Monteske tomonidan qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik Germaniya olimlari Rixard Mayer va Vilgelm Vindelband uni rivojlantirish yo'lida katta hissa qo'shdilar. XX asr boshlarida esa mazkur tushunchaning tadqiq qilinishi Yevropa ilm-fani taraqqiyoti uchun muhim qadam bo'ldi. Bu paytda turli sohalarda faoliyat yurituvchi olimlar orasida ushbu tushunchaning ma'nosini aniqlashtirish borasida bahs-munozaralar ko'p kuzatildi. Masalan, psixolog Frans Boas bu tushunchaning psixologiya fanidagi o'rnini belgilab berdi. Uning fikricha, mentalitet kishilarning fikrlash uslublariga bevosita bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada irsiy xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu narsa psixologik yo'nalishda o'rganilishi lozim edi. Keyinchalik Rossiyalik pedagog-psixolog Konstantin Yudin mentalitetni o'qitish jarayonida muhim rol o'ynashini ta'kidladi. Uning nazariyasiga ko'ra, ta'lim jarayoni davomida o'quvchilari mentalitetlariga mos ravishda o'qitilsa, natijalarning samarali bo'lishi ta'minlangan bo'lar ekan.

Mentalitet masalasining ilmiy paradigma sifatida ijtimoiy gumanitar fanlarda muhim ahamiyat kasb etishi ham aynan shudavrga borib taqaladi. Chunki ayni shu vaqtdan etnos, etniklik va millat tushunchalarining o'ndan ortiq ta'rifi inkor etilib, ular orasida milliy tafakkur tarzi, milliy dunyoqarash, mentalitet birligiga ko'proq urg'u berilgan fikr-mulohazalar, ta'riflar tasdiqlandi. To'g'ri, etnologlarning yuqorida qayd qilingan ikki oqimi o'rtasidagi ilmiy bahslarda haligacha etnos,

etniklik, millat tushunchalarining hamma uchun qoniqarli bo'lgan namunali ta'rifi ishlab chiqilmadi, ammo mentalitet muammosi etnologiya doirasidan chiqib ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya kabi fan sohalarining dolzarb tadqiqot mavzusiga aylandi.

Holbuki, Markaziy Osiyo va Rossiya ijtimoiy gumanitar fanlarida endigina o'rganilishi odat bo'lgan mentalitet muammosi Amerika va G'arb madaniy antropologiyasida ancha tajriba to'plangan mavzudir. Bu masalalar «mental health» [7] – mental sog'liq nuqtai nazaridan o'rganilib, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mentalitet etnik va milliy xususiyatlardan ko'ra ko'proq madaniyat hosilasi va darajasi nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Postsovet muhitida postmodernizm va primordializm oqimlari bahslari tufayli mentalitet masalasiga yo'l ochilishini taqdir taqozosi deb bilsak, uning mantiqiy mohiyati bu masalaning o'rganilishiga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanar edi. Mustaqil davlatlar ijtimoiy gumanitar fanlarida bugun mentalitet muammosiga katta e'tibor berilishining sababi bor: ushbu holat keyingi yigirma yillik vaqt ichida sobiq sovet ittifoqi hududida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, mustaqillikka ega bo'lgan sobiq sovet ittifoqi davlatlarining milliy identifikatsiya vaziyati bilan belgilangan.

Milliy identifikatsiya istiqlool davrida yangi xususiyat, iqtisodiyot, siyosat bilan birga yangi hayot tarzini qaytadan boshlagan davlatlar faqatgina milliylik nuqtai nazaridan davlat qiziqishlarini ifoda etish emas, balki odatdan tashqari jarayonga moslashish va saqlanib qolish uchun kurash vaziyatida butun tarixiy, moddiy va ma'naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan o'z ildizlarini, o'zligini anglash, barcha progressiv va iqtisodiy siljishlarga to'sqin bo'layotgan, an'anaviy dunyoqarashga asoslangan milliy tafakkur tarkibidagi kamchiliklarni qaytadan mushohada qilish evaziga zamonaviy dunyo taraqqiyotiga integratsiyalashuvdir. Mentalitet muammosining hozirgi davr gumanitar fanlarida ko'ndalang bo'lib turishidagi ijtimoiy-siyosiy asoslar shu masalaga borib taqaladi. Bu hodisaning psixologik mohiyatini esa psixolog olim P.N.Shixarev shunday talqin qiladi: «Tarixni inson faoliyatining faqatgina bir doirasida, iqtisodiyot miqyosida tahlil

qilish shuni ko'rsatyaptiki, ishlab chiqarish vositalarining rivoji va murakkablashishi darajasida insoniyat unsiz ravishda uyg'onishning tashqi shakllaridan shaxsning motivatsion yadrosi, qadriyatlar bazasi bo'lgan ichki shakllariga butun imkoniyatni jalb etgan holda siljib bormoqda» [8; 7].

Mentalitet terminining vujudga kelishi XIX asrda yashab ijod etgan faylasuf va shoir R.Emerson nomi bilan bog'liq [1]. Keyinchalik esa mentalitetning ilmiy muomalaga kiritilib, ilmiy tushuncha sifatida mazmun va ma'no kasb etishi fransuz etnologi va sotsial antropologi L.Levi-Bryull nomi bilan bog'langan. «Ibtidoiy mentalitet» asarida u shunday yozadi: «O'n ikki yil avval «Ibtidoiy jamiyatlarda fikrlash faoliyati» degan asarim nashrdan chiqayotganida, uni «Ibtidoiy mentalitet» deb nomlasam ham bo'lar edi, lekin men bunday nomdan voz kechdim, sababi «mentalitet» so'zi va hattoki «ibtidoiy» atamasi ham bizning tilimizga anchagina yot edi» [5; 9]. «Ibtidoiy mentalitet» 1921 yilda nashr etilganini e'tiborga olsak, XX asr boshlarida «mentalitet» ilmiy muomalaga deyarli kirib kelmagan atama edi. «Sodda mentalitet» tushunchasining shakllanishida asosiy hissani fransuz faylasufi, sotsiologi va sotsial psixologi Lyusen Levi-Bryul (1857–1939) o'zining «La mentalite primitive» asari orqali qo'shdi» [1; 22], deb e'tirof etadi T.V.Andrianova. Darhaqiqat, mazkur asar muallifining ta'kidlashiga ko'ra, «Ibtidoiy mentalitet»ning predmeti ibtidoiy odamlarning sabab va oqibatni tushunishi, ana shu kategoriyalar haqidagi tasavvurlarini o'rganishdan iborat edi [5; 9]. E'tibor berilsa, ushbu kitobda «mentalitet» atamasiga alohida ta'rif berilmaydi, u fikrlash faoliyati, aqliy ko'nikma tushunchalariga adekvat so'z tarzida ishlatiladi.

Mentalitet atamasining XX asr ilm-fanida qaytadan hayot boshlashi o'tgan asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Ana shu davrdan boshlab mentalitet atamasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda ommaviylashib, «madaniy stereotip» iborasini siqib chiqara boshladi va fanga dastlabki kirib kelgan davridan ko'ra ko'proq vazifani, mazmun-ma'noni o'z zimmasiga oldi. Bu faqatgina mentalitetga urg'u berish ijtimoiy gumanitar fanlarda urf bo'la boshlaganligidan emas edi, albatta. Ushbu holat quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, «madaniy stereotip» o'z mohiyati va ta'rifiga ko'ra alohida guruhlar dunyoqarashi, mental qiyofasida vujudga kelayotgan dinamik o'zgarishlarni qamray olmas edi. Sababi, «stereotip» so'zi yunoncha stereos – mustahkam va typos – belgi, xususiyat so'zlarining birikmasidan olingan bo'lib, ilmiy muloqotda asosan fe'l-atvor, idrokning an'anaviy, odatdagi shakli, andozaviy fe'l-atvor tarzi, muayyan izchillikda xatti-harakatlarni amalga oshirish usuli, bir xillik, o'xshashlik ma'nolarida qo'llaniladi» [6; 22]. Shu tufayli, «zamonaviy gumanitar fanlarda mentallik tushunchasi keng ma'no kasb etib, katta sotsial guruhlar uchun tipik hisoblangan, u yoki bu madaniy stereotiplarning yoki butun jamiyatning ruhiy shaylanganligi xarakteristikasinigina aniqlashda emas, kishilarning katta bo'lmagan guruhining tafakkur tarzi, e'tiqodi, «ruhiy ko'nikmalarini» ham aniqlashda ishlatiladi [9].

Ikkinchidan, aynan shu davrlardan boshlaboq vujudga kelayotgan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlarni sezib, manqurtlashishdan o'z kelajagi va taraqqiyoti tomon yuz tutayotgan millatlar tafakkur tarzini ma'lum me'yor asosida belgilashga tabiiy zaruriyat, ehtiyoj vujudga keldi.

Mentalitet bir tomondan, stereotipda belgilangan fe'l-atvorning takrorlanuvchi xususiyatlarini, ikkinchi tomondan esa, tafakkur, idrok, dunyoqarashning shakllanib boruvchi dinamik belgilarini ham o'zida ifodalagan keng, verbal tushunchadir. Shuning uchun u XX asr oxirlaridagi tub o'zgarishlar jarayonining alohida guruhlar tafakkuridagi in'ikos holatlarini ochib beruvchi vosita sifatida ilmiy ob'ekt vazifasini o'tamoqda.

Shu kunga qadar mentalitetni o'rganish bo'yicha yondashuvlar, nazariyalarning shakllanish tarixini tahlil eta turib, ularni quyidagicha turkumlashtirish mumkin, degan fikrga keldik:

I. Mentalitetni o'rganish tarixi va muammolarini o'zida aks ettirgan mumtoz asarlar. O'z navbatida, bu turkum ikki yo'nalishga bo'linadi:

1. Mustamlaka siyosatining mafkuraviy asoslarini yaratish, mustahkamlash, mustamlaka hududlariga yot bo'lgan siyosat, ma'rifat va madaniyatni olib kirib, singdirish yo'lida xizmat qilgan tadqiqotlar. Ushbu tadqiqotlarning g'oyaviy

ildizlari nemis klassik falsafasining namoyandalaridan biri Georg Vilgelm Fridrix Gegel ijodiga borib taqaladi. Yevropaparastlik va shovinistik ta'limotlarining asoschisi bo'lgan Gegel ijodida Sharq xalqlarining estetik dunyoqarashi: «G'oyaviylik – xitoylikning tafakkur tarziga xos emas, estetiklik undan juda uzoqda» yoki, hindlar haqida so'z ketar ekan, «go'zallikni bu kabi tushunish ortida asabiy zaiflik turibdi» [4; 291], qabilidagi tahlil bilan kamsitiladi.

Gegel XIX asr G'arbiy Yevropa imperiya siyosatining mafkurachisi sifatida, o'z ijodida mustamlakadagi xalqlarning tafakkur tarzini istilo maqsadida o'rganilishiga asos soldi. Aslida mentalitetning o'rganilishi va uning ilmiy muomalaga olib kirilishidan asosiy maqsad ham, istilo qilinishi lozim bo'lgan hududlardagi xalqlar tafakkur tarzini o'rganishdan iborat bo'lgan. Bu kabi maqsaddagi ilmiy ishlar sirasiga Levi-Bryul, P.G.Galuzo, A.R.Luriya asarlarini sanab o'tish mumkin.

2. Xalqlarning fikrlash tarzi, aqliy jarayonlari, dunyoqarash xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi etnografik xarakterdagi materiallar. Mazkur yo'nalishdagi asarlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoga sayohat yoki surgun tufayli kelgan chet el olimlari, tarixchilari tomonidan yozilgan bo'lib, ularning aksariyatida Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzi, hayotini tasvirlash bilan birga urf-odat, e'tiqod shakllari bilan bog'liq irratsional tafakkur tarziga, ruhiy dunyosi, aqliy xususiyatlariga ham alohida e'tibor berilgan [3; 292].

Xulosa qilib aytganda, mentalitet masalasi keng qamrovli va dolzarbligini nazarda tutgan holda o'zbek xalqining bugungi kundagi taraqqiyot bosqichini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu muammoning yanada kengroq va qadriyat nuqtai nazaridan chuqur ilmiy asosida o'rganilish ehtiyoji aniq seziladi. Zero, milliy mentalitet ijtimoiy tafakkurning umumlashgan shakli, shu bilan birga, bir necha ming yillik tarixiy dovonlar osha shakllanib, o'zbeklarning millat darajasida birlasha olishiga vosita yaratgan tafakkur ifodasi sifatida yuksak qadriyat maqomiga egadir. Shu sababli bu masala alohida tadqiqot obekti bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Андрианова Т.В. Геополитика и культура. – Москва: Политика, 2001.
Ментальности (менталитет)//
<http://www.krugosvet.ru/articles/105/1010513/1010513a1/htmhttp>
2. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Санкт Петербург, 1865.
– 292 с.
3. Гегель Г.В. Эстетика. – Москва: Искусство, 1973.
4. Люсьен Леви-Брюль. Первобытный менталитет. – Москва: Культурное наследие, 2003.
5. Умарова Н.Т. Жамият сиёсий маданиятининг шаклланишида этник феъл-атвор стереотипларининг ўрни: сиёсий фанлар номзоди диссертацияси. – Тошкент, 1997.
6. Филиппов В.Р. Парадигматика этнологии // <http://www.viu-online.ru/science/publ/buleten10/page9.html>
7. Шихарев П.Н. Современная социальная психология. – Москва: Деловая книга, 2000.
8. Ментальности (менталитет)
<http://www.krugosvet.ru/articles/105/1010513/1010513a1/htm>.